

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Максет АЙЫМБЕТОВ

Нағмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлқин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Гулзода БОЙМУРОДОВА

Маманазар ДЖУМАЕВ

Асқар ДЖУМАШЕВ

Гүлнара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Умида ИБРАГИМОВА

Меруерт ПАЗЫЛОВА

Асқарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Нуржан МАТЧАНОВ

Шукурулло МАРДОНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаххор ТУРСУНОВ

Нурзода ТОШЕВА

Тажибай УТЕБАЕВ

Амангелди КАМАЛОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНБИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Гавхар ЭЩАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-omnabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limida o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubi	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantirishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'limni tashkil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джураев А. С. “Адаптив таълим” ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'limoti	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабинович хакида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Asanova U. S. Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumslarin shólkemlestirivdiń ózine tán ózgeshelikleri	148
Isaqov J. A. Grafik ta'lim samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiy imkoniyatlari	152
Isaqov J. A. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari	157
Polotov K. K. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi	162
Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И. Бўлғуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўқув тезаурусидан фойдаланиш	167
Azatova S. N. Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida	173

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Shanasirova Z. Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish yo'llari	179
Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish	185
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	189
Teshabayeva Z. S. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li	194
Nosirova R. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari	198
Xidoyatova N. A. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	204
Karimjonova D. A. Maktabgacha ta'lim muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantirishning interaktiv metodlari	208
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari	213
Abdijaborova S. Q. Milliy harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	218
Soatov E. M. Harakatli o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jihatlari	222
Abdijaborova S. Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari	227
Ismanova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari	231
Atabekov F. O. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi	237
Buriyeva A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish	241
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni	244
Abduraximov D. D. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish	248
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati	252
Xodjaxonova K. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari	257
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish	261
Abdullayeva L. U. Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish	267

Abdullayeva F. Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik guruh bolalarida ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari	272
Izbosarova Z. A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish tizimni takomillashtirishning shart-sharoitlari	277
Муталова Д. А. Педагогические возможности образовательного кластера в процессе дошкольного образования	284
Марипова Н. Х. Подготовка будущих педагогов воспитателей к экспериментальной деятельности в инновационной среде	287
Насырова З. Х. Грамматический строй речи у детей дошкольного возраста	292
Nurmanova N. K. Improving integrative modular teaching of future primary school teachers in modern conditions	296

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Maxmudov B. A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida referat va mustaqil ta'lim ishlarining mazmuni va mohiyati	305
Abdullayev A. A. Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash xususiyatlari	310
G'anixo'jayev A. Sh. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish muammosi holatini tahlili	313
Matmurodov A. K. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda tibbiy pedagogik nazoratning o'rni va ahamiyati	317
Sanakulova A. R. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish muammosi holatini tahlili	320
Jo'raboyev A. B. Jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish	324
Karimov A. K. Gandbol darvozabonining mashg'ulotlarini optimallashtirish	327
Madaminova M. B., Bekmanova H. Sh. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va uni baholashning umumiy asoslari	332
Karimboyev O. Q., Jammatov J. Sh. Gandbolchilarda kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	337
Saparboyev O' R., Salayev T. K. Yosh gandbolchilarni tayyorlashda harakatli o'yinlar	344
Yuldashev N. Q. Jismoniy tarbiyning shaxs xususiyatlari va sifatlarini shakllanishiga ta'siri	350
Ikramov I. M. Jismoniy madaniyatning shaxs hayotidagi o'rni	355
Yuldashev N. Q. O'z-o'zini baholash tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchisining faolligi	360
Hayitmurodova N. A. Jismoniy tarbiya bo'yicha integratsiya amaliyotlarini tizimli ko'rib chiqish	364
Shaalimov M. A. Jismoniy tarbiyning shaxs xususiyatlari va sifatlarini shakllanishiga ta'siri	369
Kuchkarov U. L. Jismoniy mashg'ulotlarni tashkil qilish shakillari	374
Muxamedjanov Sh. M. Jismoniy tarbiyaning jamiyatimiz hayotidagi o'rni	379
Kuchkarov U. L. Jismoniy tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri	384
Ortiqov B. B. Yuqori malakali voleybolchilarni musobaqa oldi tayyorgarlik yo'llari	389
Soatov E. M. Talabalarda kurash sporti bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	392
Davurbayeva M. J. Gimnastika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional tayyorgarligini rivojlantirish yo'llari	397
Mamadiyev Y. U. Basketbol to'pini uzatish texnikasini takomillashtirish	402
Исламов И. З. Современный урок физической культуры. каким он должен быть?	410
Рахимкулов К. Д. Влияние физической культуры на сохранение и укрепление здоровья обучающихся студентов	414
Икромов И. М. Формирование здоровьесберегающих компетенций у студентов на занятиях физической культурой	419
Рахимкулов К. Д. Физическое воспитание дошкольников как основа здоровья современного общества	423
Набижанов Ш. М. Роль физической культуры и спорта в духовном воспитании личности	428
Рахматова Н. А. Художественная гимнастика в физическом развитии дошкольника	432



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILA, MAKTAB VA MAHALLA BILAN HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI

Nosirova R. X.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o’qituvchisi
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

Tayanch soʻzlar: psixologik tayyorgarlik, intellektual rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, korrektsiyalash, syujetli rolli oʻyin, muloqot, “Men-kontseptsiyasi”.

Ключевые слова: психологическая подготовка, интеллектуальное развитие, социальное развитие, коррекция, ролевая игра с сюжетом, общение, «Я-концепция».

Key words: psychological preparation, intellectual development, social development, correction, role-playing game with a plot, communication, «I-concept».

Oʻzbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishda ta’lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yoʻnaltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur boʻlgan faoliyatga moyillik uygʻotish, barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimizda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, uzluksizlik, uzviylik va izchillik bilan bogʻliq tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, bu borada Gʻ.I.Muxamedov [4], U.N. Xodjamkulov [6], Sh.I.Botirova [3], S.A.Toshtemirova [5]lar tomonidan ta’lim klasteriga oid yangicha yondashuvlar va gʻoyalar ilgari surilgan.

Klasterli yondashuv moslashuvchan hamda variativ jihatdan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu borada tadqiqotchi N.Sh.Abdullayevaning fikrlari oʻrinlidir: “Maktabgacha ta’lim variativ tizimining maqsadi – har bir bolaning sifatli va ommabop (ochiq) ta’lim olish huquqini ta’minlash. Bu tizimda ta’lim oluvchilar uchun “individual trayektoriya” ishlab chiqilgan, ya’ni ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda vaqtni belgilash, bola rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yoʻnalishlarni hisobga olish, imkoniyati



cheklangan bolalar, maxsus ta'lim talablarini inobatga olish va h.k. "individual trayektoriya"ning asosiy mezonlari sifatida qabul qilingan" [2; 11-b.].

Bizningcha, 6–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga kompleks tayyorlashda tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro ishonchli munosabati shakllanishi tegishli samarani beradi. Boshlang'ich ta'limga tayyor bola shaxsini shakllantirishda maktab va MTTning hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etish ham klaster yondashuvining muhim omilidir.

Maktabgachayoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodikasi ilmiy asoslangan T.L.Xurvaliyevaning ilmiy izlanishlarida klasterli integratsiyaning asosiy tamoyili ta'lim mazmunining tizimli saralanishi ekanligi, bunda har bir bo'g'in uchun mos vazifalar belgilab olinishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida klasterli integratsion yondashuvga ehtiyoj quyidagi sabablar bilan tavsiflanishi ko'rsatiladi:

1. Integrativ mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilar potentsialini (ichki imkoniyat) rivojlantiradi, atrof-olamni faol ravishda anglashga da'vat etadi, sababiy oqibatlarni fikrlash va tushunishga yordam beradi, mantiq, tafakkur va kommunikativ qobiliyatni rivojlantiradi.

2. Integrativ mashg'ulot bolalar uchun qiziqarli va noan'anaviy ravishda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida turli ish turlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarning diqqatini jamlaydi, ularni ruhan qo'llab-quvvatlaydi.

3. Integrativ mashg'ulot pedagogik imkoniyatlarni namoyon etadi, turli faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarda uchraydigan charchoq, zerikish va zo'riqlashlarni bartaraf qiladi, bilishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, xayol, diqqat, tafakkur, nutq va xotirani rivojlantiradi.

4. Mashg'ulotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik vaqtdan unumli foydalanishga imkon yaratadi, ya'ni bolalar xorijiy til, tasviriy san'at, musiqani o'zlashtiradi, tarbiyalanuvchilarni rivojlantiruvchi faoliyat, shuningdek, amaliy yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlarni (oilada, mahallada, ob'ektlarda, to'garaklarda) o'tish uchun ham sharoit yaratiladi.

5. Integratsiya jarayonida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchilardan iqtidori, pedagogik mahorati, ijodkorligini namoyon etish talab qilinadi" [7; B.20].

Klasterli yondashuvda oila va MTT hamkorligini yo'lga qo'yish belgilangan. Odatda tarbiyachilar va ota onalar ham o'zlarining boy tajribalariga ega. Aksariyat hollarda, oila va tashkilotning roli bu so'zda keng ma'noda bir-biridan ajratilgan. Ota-onalar farzandlarini tashkilot eshigida qoldiradilar va eshik ortida nimalar bo'lishi haqida ma'lumotlarni kam darajada biladilar. Tarbiyachilar bolaga tashkilotda bo'lgan davri uchungina javob berishga



ko'nikadilar. Buning uchun ulardan oilalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish talab qilinmaydi. Shu bois ta'lim beruvchi hamda oilalar ham qanday qilib axborot almashuv, hamkorlikda rejalashtirishni amalga oshirish, bolalar guruhida birgalikda ishlashni bilmasliklari mumkin va buning natijasida yangi talablar oldida o'zlarini noqulay his qilishlari tabiiy. Bunday sharoitda pedagoglar va ota-onalarga maktabgacha ta'lim hayoti bilan hamkorlik masalasini tushuntirish birmuncha qiyin kechishi ehtimoldan xoli emas.

Bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish klasteri asosida ularni maktabga tayyorlash metodikasini takomillashtirishda maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti va Ilk qadam davlat o'quv dasturida belgilab berilgan bolaning rivojlanish soha kompetentsiyalariga tayanildi. Bolalarni o'qishga tayyorlashga yo'naltirilgan metod va texnologiyalar, ta'lim-tarbiya shakllari va vositalaridan foydalanildi. Mazkur texnologiyalar bolalarda ijodiy va mantiqiy fikrlash, degital, kogerent, divergent tafakkur, mushohada yuritish, mustaqil xulosa chikarish, o'z-o'zini tahlil qilish kabi indikatorlar amalga oshirilishini ko'zlaydi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda pedagogik diagnostika, ya'ni "Bolaning rivojlantirish xaritasi" MTT pedagogi, ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi hamda yuqoridagi (ijtimoiy- hissiy, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining) rivojlanish soha kompetentsiyalari qay darajada o'zlashtirilganligi aniqlanadi. Ota-onalar tarbiyachi maslahatiga ko'ra, uyda farzandlari bilan tarbiyachi tomonidan berilgan metakognitiv ko'nikmani shakllantiruvchi o'yinli topshiriqlarni birgalikda bajaradi. Natijada bolalarda bilish faolligi yuqori darajada o'zgaradi.

Ma'lumki, ota-onalar yig'ilishining yo'l-yo'riq va maslahat beruvchi, norasmiy va o'zaro qo'llab-quvvatlovchi kabi turli xil ko'rinishlari mavjud. Yo'l-yo'riq beruvchi tomonidan yig'ilishlar seminar shaklida o'tkaziladi. Qoida bo'yicha mutaxassis chetdan chaqiriladi va uning yordamida ota-onalarning qiziqishlari asosida tanlangan mavzu muhokama qilinadi.

Bolalarni o'qishga tayyorlashda ulardagi emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy jihatlarini rivojini inobatga olish kerak. Bu jihatlar bolaning atrof-olam haqidagi bilimlari kengayishi va chyqurlashishi, barqaror (doimo bir xil) munosabatda bo'ladigan predmet va hodisalarning ko'payib borishi bilan bog'liq (shular tufayli emotsiya va hissiyotlar mazmun jihatdan rivojlanadi). Emotsiya va hissiyotlarning dinamik tomoni rivojlanishi bolada o'z emotsiyalarini boshqara olish ko'nikmalarining shakllanishi bilan kechadi. Emotsiya va hissiyotlarning mazmuni esa emotsional kechinmalarining ob'ektlari va sabablari bilan bog'liq. Dinamik aspekt esa emotsional kechinmalarining chyqurligi, davomiyligi va vujudga kelish chastotasi bilan xarakterlanadi. Emotsiya va hissiyotlar



rivojlanishi boshqa psixik jarayonlar, ayniqsa, nutqning rivojlanishini ko'zda tutadi. Nutq yordamida bola o'z hissiyotlari va emotsiyalarini anglaydi va boshqaradi. Nutq orqali bolalar nafaqat biror narsaga ehtiyoj sezayotganlarini bildiradilar, balki ma'lum bir tarzda o'z kechinmalarini ham ifodalaydilar. Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlarga aloqadorligini ham ta'kidlash mumkin. Bolaning vaziyatni tushunish, undagi o'zgarishlarni boshidan kechirishi muayyan emotsional holatni hosil qiladi.

Tadqiqot davrida bolalarni maktab ta'limiga metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga oid ma'lumotlar bo'yicha ota-onalar bilan uchrashuv, trening va bahs-munozaralar o'tkazilib, ularga quyidagi yo'nalishlarda tavsiyalar berildi:

- ▶ bolaning o'sishi va rivojlanishi;
- ▶ qiyin xulq-atvorni qanday tuzatish mumkinligi;
- ▶ bolaning ovqatlanishi;
- ▶ bolalar kasalliklari;
- ▶ o'yin orqali o'rgatish;
- ▶ shaxsiy qadr-qimmat hissinı rivojlantirish;
- ▶ nutqini rivojlantirish;
- ▶ o'yinchoqlarni tanlash va h.k.

Tarbiyachining asosiy vazifalaridan biri tarbiyalanuvchilarning kundalik foliyatini mazmunli tashkil etish, muammoli vaziyatlarni hal etishga o'rgatishdan iborat. Natijada ta'lim oluvchilarning har birida turli hayotiy vaziyatlardan oson va yengil chiqish sifatleri shakllanadi.

Pedagogik-psixologik kuzatuv natijasida "Maktabga tayyorlash" quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Jismoniy barkamollik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari, qo'l barmoqlari va ko'rish-harakat muvofiqligi rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Bilish faolligi shaxs sifatida tayyorligi, atrof-olamga, kattalar va o'zgalarga, o'simliklar va hayvonot olami bilan tanishtirish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ortadi.

Intellektual jihatdan tayyorgarlik bolalarda erkin, mantiqiy fikrlash, mustaqil va ijodiy yondashish malaka va kompetentsiyalarining namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Ta'lim oluvchining maktabda o'qishi nutqining qay darajada rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham metakognitiv ko'nikmani shakllantirishda bolalarning nutqi va mantiqiy tafakurini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonida, ya'ni nutqiy ko'nikma va malakaning rivoji, bolaning mustaqil va erkin fikrlashi, ona tilini o'zlashtirganligi



yutuqlarida, hikoya soʻzlab berish, mushohada yuritish, tasavvurini izohlash, ravon soʻzlash kabi omillar orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, aqliy rivojlanishida namunaga qarab rasm chizish, oʻquv topshiriqlarini bajarish ham muhim sanaladi.

Tarbiyalanuvchilarning maktabda oʻqish samaradorligi ularning psixologik jihatdan tayyorgarlik darajalariga bevosita bogʻliq. 6–7 yoshli bolalarning maktab taʼlimiga tayyorligi oiladagi taʼlim-tarbiyaga ham uzviy bogʻliq boʻladi. Mazkur vazifalar bolaning ijtimoiy muhitdagi oʻrni, boʻlajak oʻquvchi imijining shakllanishida ham muhim oʻrin egallaydi.

Tadqiqotimiz natijalari bolaning maktab taʼlimiga tayyorgarligi uning psixik taraqqiyotiga bogʻliq degan xulosani shakllantirishga zamin yaratdi. Bolada metakognitiv koʻnikmani shakllantiruvchi komponentlar ham maktabgacha va boshlangʻich taʼlim oʻrtasida koʻprik vazifasini oʻtaydi.

6–7 yoshdagi bolaning kompleks tayyorgarligi tarkibini elementar matematik tasavvurlar, nutq, oʻqish va yozish malakalari, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanish soha kompetentsiyalari tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilarning aqliy tayyorgarligi bilish jarayonlari bilan bevosita bogʻliq.

Maktabgacha va boshlangʻich taʼlimning amaldagi dasturlarini qiyoslash ular oʻrtasida maʼlum izchil aloqa borligini koʻrsatdi. Masalan, ona tili, matematika kabi ayrim fanlar boʻyicha.

Maktabgacha va boshlangʻich taʼlimni optimallashtirish taʼlim metodi va vositalarida ham aks etishi muhim. Maktabdagi dars va maktabgacha taʼlimdagi oʻquv-tarbiyaviy faoliyat bir qator oʻziga xos jihatlarga ega, ammo shu bilan birga uyushtirilgan taʼlimning asosiy shakllari sifatida ulargagina xos boʻlgan ichki umumiy xususiyatlar majmuiga egadir. Faoliyat (mashgʻulot) va dars, mazmuning dasturlashgan aniq, tashkiliy va vaqt jihatidan cheklanganligi, pedagogning yetakchilik roli, ilmiylik kabi umumiy xususiyatlari taʼlim shakllaridagi izchillik uchun zamin yaratadi. Maktabgacha taʼlimdagi mashgʻulotlarda bolalarda oʻquv faoliyatining elementlari tarkib toptiriladi, oʻz xatti-harakatlarini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, maqsadga yoʻnalgan aqliy ish faoliyati tarkib toptiriladi. Bularning barchasi 6–7 yoshdagi bolalarni taʼlimning yangi sharoitlariga faol kirishishga tayyorlaydi.

Shu oʻrinda, taʼlim turlari oʻrtasidagi uzviylik maktabgacha va boshlangʻich taʼlimda bola shaxsini kompleks rivojlantirishni taʼminlaydi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda 595-sonli “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/4646908>
2. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha taʼlimni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Chirchiq, 2019. – 46b



3. Botirova Sh.I. Adabiy ta'lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. – 60 b.
4. Muhamedov G.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija // Xalq so'zi. 2019 yil 15 fevral. <http://xs.uz/uzkr/post>.
5. Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish. Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. – 18 b.
6. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida (pedagogik ta'limni klasterlashtirishning zarurati) // Zamonaviy ta'lim, 2019. – № 10 (83). – B. 10-15.
7. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. – 77 b.
8. Hamidovna, N. R. (2020). Preparation of children in schools by making technological techniques in pre-school education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 120-124.
9. Nosirova, R. K. (2020). Methodology for teaching outdoor games in preschool institutions. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari ilmiy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Bolalar va ota-onalar, mahalla bilan ishlash yo'llari ko'rsatilgan va ota-onalar uchun kerakli tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены научно-практические аспекты кластерных подходов взаимодействия организации дошкольного образования с семьей, школой и микрорайоном. Даны способы работы с детьми и родителями, соседством, необходимые рекомендации для родителей.

SUMMARY

The article highlights the scientific and practical aspects of cluster approaches for the interaction of the organization of preschool education with the family, school and microdistrict. Ways of working with children and parents, neighborhood, necessary recommendations for parents are given.

